

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

BOZORBЕКOV AHMADBЕК SOHIBJON O‘G‘LI

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LOGISTIKA TERMINLARINING
LINGVISTIK TADQIQI**

**10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K: 811.111’373.7
811.512.133’373.7

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Bozorbekov Ahmadbek Sohibjon o‘g‘li

О‘zbek va ingliz tillarida logistika terminlarining lingvistik tadqiqi..... 3

Бозорбеков Ахмадбек Соhibжон угли

Лингвистическое изучение терминов логистики в узбекском и английском языках 25

Bozorbekov Ahmadbek Sohibjon ugli

Linguistic study of the terms of logistics in Uzbek and English 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

BOZORBЕКOV AHMADBЕК SOHIBJON O‘G‘LI

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LOGISTIKA TERMINLARINING
LINGVISTIK TADQIQI**

**10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida RU2022.3.PHD.Fil2785 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ashfu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Sobirov Abdulhay Shukurovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Yakubov Jamaliddin Abduvaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Tursunova Nodira Fayzullo qizi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD 03.29.12.2022.Fil156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "7" dekabr soni 2, 3 - qatnashgan majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76, faks: 0(374) 223 42 76, e-mail: info@ashfu.uz.)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (268 -raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 170100, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____ kuni tarqatildi
(2023-yil "___" _____ da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).



Rustamov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor


A.Dj. Ataboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)


M.L.U. marvodjaev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshudagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Globallashuv jarayonlari va buning natijasida jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub yangilanishlar, davlatlar va millatlarning integratsiyasi butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimiz iqtisodiyotining yangi sifat bosqichiga ko'tarishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, turli zamonaviy sohalarning paydo bo'lishi, ularda keng iste'molda bo'lgan alohida terminologik apparatlarning shakllanishi hamda boyishiga olib keldi. O'z navbatida mazkur terminlar tizimini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish zarurati yuzaga keldi.

Zamonaviy dunyoda ishlab chiqarishning yangi turlari va tarmoqlar soni muttasil ortib bormoqda. Soha bilimlari va ilmiy farazlar kengayib, yangidan yangi terminlar paydo bo'lmoqda va ular alohida terminologik tizimlarni tashkil etmoqda.

O'zbekistonda jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri logistikadir. Mazkur soha mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun yangi yo'nalish sanaladi. Garchi uning shakllanish jarayonlari Buyuk Ipak yo'lidagi xalqaro munosabatlarga borib taqalsa-da, hozirgi kunda logistikaga oid aksariyat terminlar xorijiy tillardan, birinchi navbatda, ingliz tilidan o'zlashmoqda. Shu ma'noda, soha terminologiyasini ingliz va o'zbek tillari kesimida qiyosiy o'rganish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim strategik vazifani ham bajaradi.

Sababi shuki, logistikaning zamonaviy yo'nalishlari xilma-xil. U iqtisodiyotning butun sohalari: ishlab chiqarish, tovarlarni saqlash, iste'molchilarga yuborish, yer, suv, havo transporti va boshqalar rivoji bilan chambarchas bog'liq. Logistika sohasini o'rganish tovarlarni ishlab chiqarish, taqsimlash samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko'rsatishning yuqori sifatini ta'minlash imkonini beradi. Shu bois, hozirda logistikaga oid terminlarni tadqiq etish zamonaviy lingvistikaning istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Alohida ta'kidlash lozimki, dunyo tilshunosligida logistikaga oid terminlarni tartibga solish ishlari to'liq amalga oshirilmagan. Jumladan, o'zbek tilida soha terminlarini tartibga solish mezonlari deyarli ishlab chiqilmagan. Xususan, terminlarning leksik-semantik, leksikografik, pragmatik, uslubiy-funksional, grammatik jihatlari tahlilga tortilmagan, tarjimadagi muammolari yetarlicha hal etilmagan. Qolaversa, mamlakatimiz uchun nisbatan yangi bilim va amaliy faoliyat sohasi sanalgan logistika terminlarini o'rganish o'zbek va xorijiy kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikning kuchayishshiga xizmat qilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'zbek va chet tillarida erkin muloqot qila oladigan yuksak malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan transport-logistika sohasi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan konstruktiv va o'zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirishda muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Zero, mintaqa orqali yirik xalqaro bozorlarni bir-biri bilan bog'laydigan eng qisqa yo'nalishlar o'tgan.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari oldida turgan muhim masalalardan biri – ularning hududi orqali tovarlarni tashish uchun yetarlicha shart-sharoitlarni shakllantirishdan iborat. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday degan edilar: «Bu soha – iqtisodiyotning qon tomiri. Transport va logistikani yangi bosqichga olib chiqmasak, iqtisodiyotning barqaror rivojini ta’minlay olmaymiz»¹. Aytilgan fikr-mulohazalar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2009–2013-yillarda temir yo‘l sohasini rivojlantirish va modernizatsiyalash» to‘g‘risidagi PQ-1074-son qarori, 2017-yildagi «O‘rta Osiyo – Yaqin Sharq» transport-tranzit yo‘lagini barpo etish yo‘lida hukumatlararo bitimlar, 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ 1875-son qarori, 2020-yil 2-martdagi «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirilishiga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-5953-sonli Farmonlarida belgilangan vazifalar hamda 2018-yil 5-iyundagi PQ «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3775-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi «Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 394-son Qarori va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Logistika terminlarning turli darajadagi lingvistik muammolarini o‘rganish uzoq tarixga borib taqaladi. O‘zbek tilidagi ayrim logistika terminlarning tarixiy genezisi Amir Temurning «Temur tuzuklari», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarlarida muayyan darajada aks etgan².

O‘zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov, Sh.Iskandarova, H.Ne’matov, Sh.Safarov, A.Sobirov, H.Hojiyeva, M.Abduvaliyevlarning³ ilmiy

¹ Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-sentabr kuni transport sohasida islohotlarni jadallashtirish masalasi bo‘yicha o‘tkazgan selektorida so‘zlagan nutqi.

² Temur tuzuklari (Forscha matndan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Hamidulla Karomatovlar tarjimasini). – T.: 2011. – B. 328, Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2008.

³ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Т.: Университет, 2006. И. –142 б.; Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.79-84; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004.; Ҳожиёва Ҳ.Я. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг лисоний нутқий хусусияти. Филол. фан. номз....дисс. – Самарқанд, 2001.– 150 б.; Абдувалиев М. Психолингвистик концептология ва концептлар тадқиқида ассоциатив экспериментнинг ўрни // Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(2),

kuzatishlari va olingan xulosalari o'zbek tili leksikasini maydon nazariyasi asosida o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tmishida keng iste'molda bo'lgan harbiy, logistik terminlarning fonetik, leksik-semantik, struktur-funksional, tarixiy-etimologik hamda qiyosiy-statistik jihatlari H.A.Dadaboyev, A.Atayev, S.E.Erkinov, Yu.Buryakov⁴, logistik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari bo'yicha G.A.Buchina, A.G.Ryabov, M.N.Latu, V.V.Borisov, I.A.Bubnov, V.N. Shevchuk, Ye.V.Brisina, Yu.G.Kocharyan, V.P.Korovushkinlar⁵ ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Ma'lumki, logistika terminlari dastlab harbiy nuqtai nazardan o'rganilgan. Bu borada T.V.Demidovich, R.R.Iseyev va Ye.A.Stepanov kabi olimlar tadqiqotlar o'tkazgan. Xususan, T.V.Demidovich⁶ rus tilidagi harbiy va logistik terminlarning kognitiv hamda lingvokulturologik kategoriyalarini tadqiq qilgan bo'lsa, R.R.Iseyev fors tilidagi harbiy-texnik va logistik terminlar tizimida nominativ raqobatni yuzaga keltiruvchi terminologik sinonimiya omillari asosida terminlar hosil qilishning lingvokulturologik aspektlarini tadqiq qilgan⁷. Ye. A. Stepanov harbiy va logistik terminlar sohasining til bilan bog'liq manzarasini ochib bergan. D.F.Kayumova, A.I. Shaydullina⁸ hammuallifligida yozilgan ilmiy maqolalarda hozirgi ingliz tili harbiy va logistik terminologiyasining lingvokulturologik xususiyatlari, K.Sh.Alautdinova tomonidan olib borilgan tadqiqotda ingliz va o'zbek tillari logistik terminlarning semantik va leksikografik jihatlari yoritilgan⁹.

203-209. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/10397> Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. – 287 б.;

⁴ Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. – T.: Universitet, 2003. – B. 72; Dadaboyev H. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to'plami) 3-son. – T.: 2009. – B.23; Atayev A. Ogahiyning «Jome'ul voqe'oti sultoniy» asarida harbiy terminlar. Til va adabiyot ta'limi. 2009-y.11-son. – B. 64; S.E.Erkinov Harbiy kasbga oid lisoniy birliklarning sistem-funksional xususiyatlari: Filol.f.n.... dis. avtoreferati. – T.: – B. 138; Буряков Ю. Фортификация и военное снаряжение эпохи Амира Темур//O'rta Osiyo arxeologiyasi, tarixi va madaniyati // Xalqaro ilmiy konferentsiya ma'ruzalarining tezislari. – T.: 2002.

⁵ Бучина Г.А. Роль метафоры в структурировании и функционировании лексики ограниченного употребления (на материале военной лексики в русском и английском языках): Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – Саратов, 2003. – С. 17; Рябов А.Г. Перенос значения в терминологии (на материале английской военной терминологии): Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – М.: 2010. – С. 17; Лату М.Н. Англоязычная военная терминология в ее историческом развитии: структурно-семантический и когнитивно-фреймовый аспекты: Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – Ростов, 2009. – С. 25; Борисов В. В. Аббревиация и акронимия // Военные и научно-технические сокращения в иностранных языках – М.: 2004. – С. 132-135; Бубнов И. А. Военная топография: – М.: Воениздат, 1969; Шевчук В. Н. Военно-терминологическая система в статике и динамике: Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – М., 1985. – С. 16; Брысина Е.В. Фразеологическая активность военной лексики: Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – Саратов, 1993. – С. 40-42; Кочарян Ю.Г. Аббревиация в английской военной лексике. – М.: 2007; Коровушкин В.П. Введение в изучение англоязычного военного жаргона. – Череповец, 1989; Кочарян Ю.Г. Аббревиация в английской военной лексике: Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – М.: 2007. – С. 21.

⁶ Демидович Т.В. Семантико-стилистический и лингвокультурологический аспекты изучения военной лексики (на материале художественной литературы о Великой Отечественной войне): Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – Волгоград, 2015. – С. 85-95.

⁷ Исеев Р.Р. Структурные и лингвокультурные аспекты формирования отраслевой терминосистемы (на материале военно-технической терминологии современного персидского языка): Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – М.: 2013. – С. 23.

⁸ Степанов Е. А. Языковая картина мира военной сферы (лингвокультурологический и терминологический аспекты): Автореф. дисс.... канд. фил. наук. – М., 2012. – С. 12; Каюмова Д.Ф., Шайдуллина А.И. Лингвокультурологическая характеристика военной терминологии современного английского языка // Вестник КГУКИ, 2017. – С. 3;

⁹ Alautdinova K.Sh. Ingliz va o'zbek tillarida logistika sohasiga oid terminlarning semantik va leksikografik talqini: Filol.fanlar. dokt.... diss. aftoref. – Toshkent, 2022.

Mazkur tadqiqot yuqoridagi ilmiy ishlardan farqi o'laroq unda logistika terminlarining bugungi kundagi qo'llanishi o'zbek va ingliz tillari kesimida chog'ishtirma-tipologik aspektida ilk bor tadqiqqa tortildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan Oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: o'zbek va ingliz tillarida logistika sohasida qo'llaniladigan terminlarni struktur, semantik va funksional xususiyatlarini chog'ishtirma usulda olib borishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va ingliz tillarida logistikaga oid terminologik maydonning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

o'zbek va ingliz tillarida logistika oid terminlarni diaxron jihatdan shakllanish bosqichlarini tasniflash, omillarni yoritish;

o'zbek va ingliz tillarida logistika terminlarining funksional va semantik jihatdan chog'ishtirma tahlilini amalga oshirish va ularning mavzuviy guruhlarini aniqlash;

o'zbek va ingliz tillarida logistika sohasida faol qo'llaniladigan tushunchalarni aniqlash, nutq aktlari misolida ularning o'ziga xos leksik-semantik va lingvopragmatik xususiyatlarini ochib berish;

o'zbek va ingliz tillarida logistika sohasidagi terminlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash.

Tadqiqotning obyektini logistikaga oid terminologik qatlam va unga oid birliklar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini logistika sohasida faol qo'llaniladigan terminlarning shakllanishi, tuzilishi, derivatsion, lingvopragmatik va leksik-semantik xususiyatlari hamda tarjima qilish usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvopragmatik usullar, diskursiv tahlil, lingvistik tavsiflash, qiyosiy-tipologik (chog'ishtirma), diaxron, sinxron, semantik-uslubiy, leksik-sintaktik, leksik-semantik, lingvostatistik usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek va ingliz tillarida logistika sohasida qo'llaniladigan terminlarning tarixiy-genetik ildizlari (etimologiyasi), leksik jamg'armasi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichidagi takomillashuvi orqali ularning semantikasida uchraydigan ma'no kengayishi va torayishi kabi funksional o'zgarishlar dalillangan;

o'zbek va ingliz tillarida logistika terminlarining hozirgi bosqichdagi holati, soha diskursining ichki va tashqi omillar hisobiga boyib borish yo'llari isbotlanib, o'zlashma qatlamning og'zaki va yozma nutqda qo'llanishiga muvofiq faollik darajasi hamda miqdoriy ko'rsatkichlari aniqlangan;

o'zbek va ingliz tillaridagi logistika terminlarining lingvopragmatik jihatdan tarjimadagi kalkalash, yarim kalkalash va ichki imkoniyatlar asosida so'z yasash bilan bog'liq muqobillari mavjudligi ochib berilgan;

etimologik va maxsus lug'atlarda logistikaga oid qurilmalar, qisqartma, arxaik terminlarning har ikkala tildagi pragmatik jihatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: logistika terminlarining semantik-struktur xususiyatlari yoritib berilgan, o‘zbek va ingliz tillarida logistika sohasiga oid terminlar tahlilga tortilgan;

logistika sohasining amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, uch tilli «O‘zbek-ingliz-rus tillari logistika terminlari lug‘ati» yaratilgan;

yaratilgan «Xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish» nomli o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarida tillarni chog‘ishtirib o‘qitish va o‘rganishga, chog‘ishtirma va qiyosiy tilshunoslik sohalari bo‘yicha maxsus seminar-treninglarni tashkil qilish amaliyotiga tatbiq qilingan;

transport sohasi oliy o‘quv muassasalari talabalari uchun ixtisoslik bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, ikki yoki uch tilli o‘quv terminologik lug‘atlar tuzishda, o‘zbek va ingliz tillari leksikografiyasi bo‘yicha ma‘ruza matnlarni tayyorlashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda olingan xulosalarning qat‘iyligi, muammoning aniq qo‘yilganligi va asosliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, tegishli tashkilotlar tavsiyasiga ko‘ra chop etilgan lug‘atlar, tahlillarning o‘zbek va ingliz tillari tabiatidan kelib chiqqanligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq qilinganligi, shuningdek, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chog‘ishtirilayotgan logistika sohasida qo‘llaniladigan yangi terminologik birliklarning hosil bo‘lishida struktur-semantik usul sifatida murakkab leksik birliklarning tasnifi, qiyoslanayotgan tillardagi tuzilishi, leksik-semantik va leksik-sintaktik so‘z yasash usullari aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijasida olingan ilmiy-nazariy xulosalar o‘zbek va ingliz tillaridagi logistika terminlari chog‘ishtirma tadqiqining asl mohiyatini asoslash, logistika sohasi leksik birliklarining lingvistik, leksikografik xususiyatlarini yoritishda kelgusi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati logistika, iqtisodiyot va transport yo‘nalishlari mavjud bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitishda amaliy darslar, xususan, logistika terminlarini o‘rgatish, ularning o‘rganilayotgan tilidan ekvivalentlarini qiyoslashda, shuningdek, filologiya yo‘nalishlarida tahsil oladigan talabalar uchun terminologiya, lingvistika, leksikologiya, leksikografiya kabi fanlar bo‘yicha seminar mashg‘ulotlarini ishlab chiqish hamda olib borish, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ma‘ruza matnlarini tuzish, logistika sohasiga oid terminologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va ingliz tillarida logistika terminlarining semantik, struktur va paradigmatic tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

o‘zbek va ingliz tillarida logistika sohasida qo‘llaniladigan terminlarning tarixiy-genetik ildizlari (etimologiyasi), leksik jamg‘armasi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichidagi takomillashuvi orqali ularning semantikasida uchraydigan o‘ziga xos o‘zgarishlar va yangilanishlarning faktik-analitik materiallari asosidagi xulosalardan 2020–2021-yillarga mo‘ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-I-2013-I-UK- TEMPUS-JPCR Aston Universiteti DeTEL «Developing

the teaching of European languages: modernizing language teaching through the development of blended masters programmes» loyihasini bajarishda foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 28-fevraldagi 573/30.02.03-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va ingliz tillarida logistika sohasida qo'llaniladigan terminlarning tarixiy-genetik ildizlari, leksik jamg'armasi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichidagi takomillashuvi orqali ularning semantikasida uchraydigan o'ziga xos o'zgarishlar va yangilanishlar faktik-analitik materiallar asosida dalillangan;

o'zbek va ingliz tillarida logistika terminlarining hozirgi bosqichdagi holati, soha diskursining ichki va tashqi omillar hisobiga boyib borish yo'llarini aniqlanishga doir xulosalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020–2021-yillarga mo'ljallangan 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: «O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish» nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasini bajarishda qo'llanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 28-fevraldagi 572/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va ingliz tillarida logistika terminlarining hozirgi bosqichdagi holati, soha diskursining ichki va tashqi omillar hisobiga boyib borish yo'llari isbotlangan, o'zlashma qatlamning og'zaki va yozma nutqda qo'llanishiga muvofiq faollik darajasi hamda miqdoriy ko'rsatkichlari aniqlangan;

o'zbek va ingliz tillaridagi logistika terminlarining lingvopragmatik jihatdan tarjima muqobillari va logistika sohasidagi terminlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llariga doir ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston» teleradiokanali DUK «Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar» muharririyati tomonidan tayyorlangan «Adabiy jarayon», «Ta'lim va taraqqiyot» radioeshittirishlarini tayyorlashda (2021–2022-yillar davomida) foydalanildi. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi 2023-yil 3-martdagi 04-36-348-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu dasturlar uchun tayyorlangan media materiallar mazmun jihatdan mukammalashgan;

o'zbek va ingliz tillaridagi logistika terminlarining lingvopragmatik jihatdan tarjimadagi muqobillari mavjudligini aniqlashga doir ma'lumotlardan Andijon davlat universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan «OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish» davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihasida foydalanilgan. (Andijon davlat universitetining 2023-yil 14-sentabrdagi 38-01/30.1925-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va ingliz tillaridagi logistika sohasi terminlarining lingvopragmatik jihatdan tarjimadagi muqobillari terminlarining genezisi, tarixiy taraqqiyoti hisobiga o'zgargani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan bo'lib, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Logistika terminlarinig tilshunoslikda o'rganilish tarixi**» deb nomlandi.

Bobning «**Tilshunoslikda terminologik maydon va uni tashkil etuvchilar tasnifi**» nomli birinchi faslida maydon tushunchasi hamda unga xos xususiyatlar ochib berildi. Terminologik maydon chegaralari belgilandi, maydonning avtonomligi, butunligi, uzluksizligi tadqiq etildi, maydon mustaqilligining nisbiyligi, maydonlararo munosabatlar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Ushbu bobning «**Logistika terminlari tarixi**» deb nomlangan ikkinchi faslida logistikaning shakllanish va rivojlanish bosqichlari yoritildi. Logistika terminlari shakllanishi va taraqqiyotini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin. 1. Qadimgi davr. 2. O'rta asrlar davri. 3. O'rta asrlardan Mustaqillikkacha bo'lgan davr. 4. Mustaqillik davri.

Logistika terminlarining shakllanish davri Qadimgi Yunoniston, Rim imperiyasi va Buyuk Ipak yo'lida paydo bo'lgan logistik yo'nalishlarga borib taqaladi. To'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, miloddan avvalgi III-II asrlarda, hali «logistika» atamasi qo'llanmagan bo'lsa-da, qadimgi savdo yo'llarida shunga o'xshash munosabatlar yo'lga qo'yilgan va turli tillarda ularni ifodalovchi maxsus leksik birliklar qo'llangan. Ipak yo'lidan tashqari, Buyuk Choy yo'li, Ganza savdo yo'llari, Ziravorlar yo'li, Tutqoq yo'li, Varangiyaliklardan yunonlarga yo'l, Amber yo'li, Tuzli yo'llar va h.klar haqidagi ma'lumotlar buni tasdiqlaydi.

Bular ichida Buyuk Ipak yo'li alohida ajralib turadi. U G'arbiy Yevropadan Xitoygacha bo'lgan mamlakatlarni bog'lab turuvchi o'ziga xos karvon yo'llari tizimi sanalgan. Miloddan avvalgi 123–119-yillarda Xitoy qo'shinlari mustaqil ravishda Xion-Gnu ustidan g'alaba qozonib, Xitoydan G'arbgacha yo'l ochadilar. Shu tariqa Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq va Evropani bog'laydigan savdo yo'llari paydo bo'ladi va bu ulkan karvon yo'llari tizimi bir yarim ming yildan ko'proq vaqt davomida faoliyat ko'rsatadi. Ipak yo'lidagi ikkita asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: 1. Janubiy yo'l – Shimoliy Xitoydan Markaziy Osiyo orqali Yaqin Sharq va Shimoliy Hindistonga olib borgan. 2. Shimoliy yo'l (Xitoyning shimolidan Pomir va Orol dengizi orqali Quyi Volga va Qora dengiz havzasigacha cho'zilgan yo'l. Ular o'rtasida bir nechta tutashiruvchi va oraliq yo'llar ham mavjud bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan aloqa tarmoqlari tobora zichlashgan. Tarixiy

ma'lumotlarga ko'ra, ushbu yo'llarda qatnagan karvonlar tili asosan turkiy til bo'lgan. Bu tilda faol qo'llangan *tovarish, tanga, karvon, karvonboshi, karvonsaroy* kabi terminlarni logistikaning ilk atamalari sifatida talqin qilish mumkin.

Ko'pchilik tadqiqotchilar «logistika» so'zining kelib chiqishini Qadimgi Yunonistonga olib borib taqashadi, chunki yunonlar logistikani «hisoblash» yoki «mulohaza yuritish, hisob-kitob qilish san'ati» sifatida qabul qilishgan va iqtisodiy, tijoriy, moliyaviy faoliyatlarni boshqarib turadigan eng yuqori davlat amaldorlarini logistlar deb atashgan.

Arhimed (miloddan avvalgi 287–212- yillar) ma'lumotlariga ko'ra, Qadimgi Yunonistonda 10 ta logistlar bo'lgan.

Rim imperiyasida ham «logistika» atamasi qo'llangan va oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash bilan shug'ullangan xizmatchilar «*logistlar*» yoki «*logistiklar*» deb atalgan.

O'rta asrlarda quruqlikdagi yo'llarga qo'shimcha ravishda dengiz savdo yo'llari ochilgan va ularda son-sanoqsiz terminlar aylanib yurgan. Sharq mutaffakirlaridan biri Yusuf Hos Hojibning ta'kidlashicha, birinchi tilmochlar mana shu karvon yo'llarida bo'lgan. Demak, logistika terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi Sharq va G'arbdagi savdo yo'llarining ochilishiga borib taqaladi.

Alisher Navoiy asarlarining 4 jildlik izohli lug'atida (II tom, 494-b.) berilgan *oviza* so'zi bilan zamonaviy lug'atlarda berilayotgan sohaga doir *avizo* termini o'rtasida etimologik aloqadorlik mavjudligi ham ehtimoldan xoli emas. Bu kabi misollar hozirda o'zbek tilining logistika terminologiyasi jadal sur'atlarda xorijiy tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga boyib borayotganligiga qaramasdan, uning milliy ildizlari uzoq tarixga borib taqalshi to'g'risida ma'lumot beradi.

O'rta asrlarda zamonaviy logistika tizimi paydo bo'ldi. Iqtisodiyotga doir aksariyat adabiyotlarda dastlabki savdo-sotiq munosabatlari XIV asrlarda Italiyaning Venetsiya, Genuya, Milan kabi savdo shaharlarida mavjud bo'lishiga qaramasdan, u XVII asrda Angliyada manufaktura ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan deb hisoblab kelinadi.

Bugungi globallashtirish, internet va kompyuterlashtirish asrida O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi davlatlararo iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va sh.k. aloqalarning qizg'in, jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keldi. Bunday munosabatlarning ijobiy natijalari nafaqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayotda, shuningdek, tilda, xususan, logistika sohasida ham o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda o'zbek logistika terminologiyasi mutlaqo yangi tushunchalar va realiyalar hisobiga boyib bormoqda. Mazkur terminologik tizimda xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni ichki imkoniyatlar asosida ifodalash tamoyili yetakchilik qilmoqda. Bunday jarayonda chetdan kelayotgan o'zlashmalarning bir qismi o'zbekcha muqobillari bilan almashtiriladi yoki tarjima (kalka) qilinadi. Ushbu usul yangi tushunchalarni atashda o'ta qulayligi va mahsuldorligi bilan ajralib turadi. O'zbek tili terminologiyasi tizimida muayyan tushunchalarning muqobillari bo'lmaganligi bois ularni bitta so'z bilan ifodalashning imkoniyati cheklangan. Chetdan kirib

kelayotgan tushunchani bir qancha soʻzlar yordamida izohlash yoki tavsiflash terminologiya talablariga ziddir.

Mana shunday holatlarda ruscha-baynalmilal terminlar donor tilda qanday shaklda boʻlsa, oʻzbek tiliga ayni shu shaklda tayyor tarzda qabul qilinadi.

Masalan: *budjet – budjet, kredit – kredit, auditor – auditor, texnologiya – texnologiya, solyari – solyari* va sh.k.

Hozirda oʻz hamda oʻzlashma terminlarining yonma-yon qoʻllanayotganiga shohid boʻlamiz. Ushbu jarayon avvalgi terminologik tizimidagi meʼyor va yangi leksik birlik oʻrtasidagi qarama-qarshilik, “yashash uchun kurash”dan guvohlik beradi. Tabiiy, raqobatalashayotgan terminlardan qaysi biri oʻzbek tili terminologiyasi tarkibidan munosib oʻrin egallashini lisoniy hayot, nutqiy amaliyot va vaqt koʻrsatadi. Hozircha ikki dubletli terminlar jumlasiga *upakovka – qadoqlash, upakobka; taymer – vaqt olchagich, taymer; kargo – yuk, kargo; smeta – smeta, xarajatlar loyihasi; mijoz – xodim; agent-vakil, agent* sh.k. kiritilmoqda. Baʼzi vaziyatlarda mobodo biron bir tushuncha ikki, yaʼni oʻz va oʻzlashma (ruscha-baynalmilal) termin bilan ifodalansa, shubhasiz, afzallik oʻzbekcha terminga beriladi – *bozor (market), yuk saqlovchi idish (conteyner), tirkama (pritsep), tovon (reparatsiya)* va h.k.

Oʻzlashma terminlarning maʼlum guruhi oʻzbek tili qonunlariga boʻysungan tarzda uning fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashadi. Chunonchi, oʻzlashma terminlarning oʻzbek tili fonetikasiga moslashuvi quyidagi jihatlari bilan oydinlashadi:

1) fonemalarning qisqarishi: *fridge (refrigerator), accept (acceptance), logistik (logisticheskiy);*

2) fonemalardagi tovush almashinuvi: *mayoq (mayak), oʻchoq (ochag)* va sh.k.

Birinchi bobning uchinchi fasli «**Logistika terminlarining struktural tahlili**» deb nomlanib, unda logistika sohasi atamaları struktural tahlilga tortilgan.

Logistika terminologiyasi:

a) sotib olish yoki yetkazib berish logistikasi terminlari;

b) ishlab chiqarish jarayonlari logistikasi terminlari;

c) marketing yoki tarqatish logistikasi terminlari;

d) transport logistikasi;

e) axborot;

f) kompyuter logistikasi va boshqalarni oʻz ichiga oladi.

Transport logistikasi terminologik tizimining tahlili shuni koʻrsatdiki, tanlangan 2000 ta birliklar orasida 273 tasi bir asosli, 1482 tasi koʻp asosli va 261 tasi qisqartmalardir. Shu bilan birga, bir asosli birliklarning 116 tasi sodda, 127 tasi sodda yasama va 30 tasi murakkab. Sodda terminlar:


– *freight* – yuk tashish;

– *lien* – yuk tashishda uni ushlab turish huquqi;

– *seal* – transport vositasidagi muhr;

– *hull* – bortida yuk boʻlmagan sugʻurta obyektini sifatidagi havo yoki dengiz kemasi.

Qoidaga ko‘ra, sodda terminlar eng umumiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha ular boshqa sohalardan olingan birliklar bo‘lib, transport logistikasining terminologik tizimida o‘ziga xos ma‘noga ega bo‘ladi. Masalan: *Truck* mashinasi – yuk mashinasi, *ship* – kema, *route* – marshrut, *pallet* – pallet kabi.



1-rasm. Logistikaning ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi

Birinchi bobning to'rtinchi fasli «**Logistika terminlarining derivatsion tahlili**» deb nomlanib, unda qo'shimchalar bilan yasalgan terminlar haqida so'z boradi.

Terminologik qatlamlarning aksariyatida yasama so'zlar miqdori ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan logistika terminologik sistemasi ham mustasno emas. Qayd etish joizki, yasama terminlarning deyarli barchasi ingliz tili derivatsion qonunlari asosida hosil qilingan. Bunda qo'shimcha orqali va so'zlarni qo'shish yordamida so'z yasash holatlari ko'zga tashlanadi.

I. Morfologik usul bilan so'z yasash.

Old qo'shimchalar bilan yasalgan terminlar jami leksemalarning 39 foizini, qo'shimchali terminlar esa 10 foizni tashkil qiladi. Masalan: *encase – tashish uchun qutiga soling*. Bunda otdan fe'l yasash uchun – *en* old qo'shimchasi qo'llanilgan; – *rigger – dastgohchi*; – *deregulation – transport sohasida davlat nazoratini bekor qilish*.

Terminlar asosan quydagi qo'shimchalar yordamida yasalgan:

1. Muayyan faoliyat turini bajaruvchi shaxsni bildiruvchi *-er(-or)* qo'shimchasi:

- freighter 1) yuk tashuvchi; 2) yuk kemasi;
- hauler – yuk tashuvchi;
- sender – yuk jo'natuvchi;
- vendor – yetkazib beruvchi;
- docker – port yuklovchi.

2. Ko'pincha jarayonni, shuningdek, hodisa yoki tushunchani ko'rsatadigan *-age* qo'shimchasi:

- storage – portdagi ortiqcha yuk saqlash uchun tarif;
- lighterage – zanjigalkalarda yuk tashish;
- towage – tortish;
- pilotage – kemalarni boshqarish.

3. *-tion (sion)* qo'shimchasi, ot yasash uchun xizmat qilib, muayyan bir hodisani bildiradi:


- diversion – marshrutdan chetga chiqish;
- equalization – transport tariflarini tenglashtirish;
- palletization – tovarlarni taglikka yig'ish.

Qo'shimchalarning miqdoriy nisbatini 2-rasmda ko'rishimiz mumkin.

Terminlarning ko'pchiligi ikki otning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi.


– N+N : (*boxcar – vagon, seaport – dengiz porti, pipeline – 1) quvur liniyasi*;
2) tovar oqimining eng yaxshi tuzilmasi, bunda tovarlarni yetkazib beruvchidan xaridorgacha tashish bir butun sifatida ko'rib chiqiladi, streamliner – soddalashtirilgan poezd).

Bulardan termin yasashining eng mahsuldor yo'li qo'shimcha orqali so'z yasash usuli ekanligi oydinlashadi.



2-rasm. Bir qismli terminlarda qo‘shimchalarining miqdor nisbati

Masalan: *cargo*, *liquid cargo*, *containerized cargo* kabi terminlar tarkibida *cargo* komponentining mavjudligi ularning *logistika* ishi mavzuiy guruhiga mansubligini yaqqol ko‘rsatib turibdi (3-rasmga qaralsin). Terminlar shajarasini shakllantirishda ham mazkur mezonga tayaniladi.



3-rasm. «Cargo» terminini strukturadagi umumiy asosida birlashgan birliklar

O‘zbek tili logistik terminologiyasida terminlarning uch turi farqlanadi:

1) tarixiy-an’anaviy terminlar. Ushbu turga taalluqli leksemalar juda qadimdan termin vazifasida qo‘llanib keladi va o‘zbek logistik terminologiyasining o‘zagini tashkil qiladi. Masalan, *soliq*, *kirim*, *pul*, *oldi-sotdi* singari ko‘pgina terminlar shular sirasidandir;

2) terminologik tizimning nisbatan yangi termin-o‘zlashmalar: *tara*, *logistika*, *outsorsing*, *gravatizatsiya*, *freym*, *geshtalt*, *konsept*, *kargo*, *lokatsiya* va sh.k.;

3) o‘zbek tili so‘z yasovchi qoliplari negizida hosil qilingan terminlarni ikki guruhga taqsimlash mumkin:

a) ona tili materiallari negizida paydo bolgan terminlar: *bog‘lovchi, boshqarma, yasama (derivat), qo‘nish, qurilma, suzg‘ich, yutgich, harbiy, ikkilamchi bozor; qo‘shimcha qiymat solig‘i, terma jamoa* va sh.k.;

b) o‘zlashmalar ishtirokida yuzaga kelgan terminlar: *avtomobilsozlik (avtomobilostroyeniye), raketsozlik (raketostroyeniye), eshelonlashtirish (eshelonirovaniye), shifrlash (shifzovaniye), hujjat (fotodokument), kompyuterlashtirish (kompyuterizatsiya)* va sh.k.

O‘zbek terminologiyasi tizimi sezilarli rivojlanishda bo‘lishiga qaramay, ushbu soha terminlarini quyidagi tarzda guruhlashtirilshi o‘zini oqlaydi:

1. Logistika bilan bog‘liq maydon keng qamrovli bo‘lib, unda nafaqat logistikaga, balki unga yondosh bo‘lgan sohalarga oid bo‘lgan terminlar ham ko‘plab uchraydi. Masalan: *tovar (mahsulot)* atamasi, Ingliz tilidagi ma’nosi: *product*. O‘zbek tilidagi ma’nosi *tovar (mahsulot)*.

2. *Tovar (mahsulot)* sanoat, savdo-sotiq, iqtisod va boshqa sohalarda faol qollaniladi.

a) iqtisodiyotda (*bu ishlab chiqariladigan va bozor orqali iste’molchiga yetkaziladigan mahsulot*);

b) savdo-sotiqda (*bozordagi oldi-sotdi orqali ayriboshlanadigan mehnat mahsuli*);

c) qishloq xo‘jaligida (*qishloq xo‘jaligi mahsuloti*).

Ko‘rinib turibdiki, *tovar (mahsulot)* va u kabi misollar keltirilishi logistik maydonning yadrosini tashkil qiladi. Ularsiz logistik maydonni tasavvur qilish qiyin. Logistik maydonda *kargo, yukxona, yuk* kabi periferiyadagi terminlar ham uchraydi.

Dissertatsiyaning «**O‘zbek va ingliz tillarida logistika terminlarini o‘rganishning lingvistik asoslari**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** logistika sohasi terminlari lingvistik jihatdan tahlil etiladi. Terminlarning umumiy lingvistik va xususiy lingvistik tasniflari mavjud. Ushbu bobning birinchi fasli «**O‘zbek va ingliz tillaridagi logistikaga oid terminlarning semantik maydonda tutgan o‘rni**» deb nomlangan bo‘lib, unda asosan terminlarning semantik maydonda tutgan o‘rni ko‘rib chiqilgan. Bu terminning rasmiy tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi. Ingliz tilidan farqli o‘laroq, o‘zbek tili transport logistikasi mamlakatda nisbatan yosh soha hisoblanib, sinonimik munosabatni ko‘proq o‘zbek tiliga o‘zlashgan leksemalar orqali ifodalaganligini kuzatish mumkin, masalan, «bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga tovarlarni etkazish yo‘llari, jumladan, temir yo‘llari, havo yo‘llari, avtomobil yoki yuk tashuvchi mashinalar vositasida ikkinchi manzilga olib borib berish» ma’nosini ifodalovchi terminiga e’tibor berib ko‘raylik. Termin tarkibidagi *yo‘lak* leksema o‘zbek tilida quydagicha izodalanadi:

Transport yo‘laklari: 1. *Ko‘chadan hovliga olib boradigan, ikki tomoni devor bo‘lgan uzun yo‘l.* 2. *Bino ichida xonalarga borish uchun xizmat qiladigan yo‘l; koridor.* 3. *ayn. yo‘lak. – transport koridorlari – fr. corridor < lot. corridorium – yugurish joyi. Binoning ichidagi xonalarga kirish va xonalararo aloqa uchun xizmat qiluvchi yo‘lak.*

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli «**O‘zbek va ingliz tillaridagi logistika sohalari**ga oid terminlarning funksional va pragmatik xususiyatlari» deb nomlanadi, unda logistika sohasida qo‘llaniladigan «Terminology of Logistics» terminologik lug‘atida, dominant terminlarning funksional va pragmatik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek mazkur lug‘atidagi dominant terminlarning atrofida guruhlangan terminlar soni ushbu terminning ahamiyatiga qarab 98 tadan 2 tagacha o‘zgarib turishi ko‘rsatib berilgan. Bunday terminlarni 4 ta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Bu guruh eng yirik terminologik uyalarni o‘z ichiga oladi. Ular «*product*» (*mahsulot*), «*order*» (*buyurtma*), «*cargo*» (*yuk*), «*stock*» (*zaxira*), «*planning*» (*rejalashtirish*) kabi terminlardir.

2. Logistikaning asosiy funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan «*transport*» (*transport*), «*material*» (*material*), «*shipping*» (*tashish*), «*system*» (*tizim*), «*container*» (*konteyner*), «*load*» (*ortiqcha yuk*) moddiy va nomoddiy resurslarni tashish va saqlashni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar. Ular ikkinchi guruhni tashkil qiladi. Bunday terminlar faol bo‘lib, ko‘plab variantlarni yasashda qatnashadi.

3. Keyingi katta guruh o‘z ichiga «*delivery*» (*yetkazib berish*), «*goods*» (*tovarlar*), «*distribution*» (*tarqatish*), «*freight*» (*yuk*), «*purchase*» (*sotib olish*), «*process*» (*jarayon*), «*cycle*» (*sikl*), «*operation*» (*operatsiya*), «*flow*» (*oqim*), «*inventory*» (*zaxira*), «*logistics*» (*logistika*), «*management*» (*boshqaruv*), «*handling*» (*yuklarni tashish*) kabi terminlarni oladi.

4. Ushbu guruhga sof logistik atamalar kiradi: «*pipeline*» (*quvur liniyasi*), «*chain*» (*zanjir*), «*channel*» (*kanal*); *saqlash va yuk tashish shartlari*: «*packing*» (*qadoqlash*), «*warehouse*» (*omborxon*a), «*store*» (*chakana sotuvchi*), «*supply*» (*zaxira*), «*gaz*» (*tokcha*), «*haul*» (*tashish*), «*replenishment*» (*qayta zaxiralash*), «*depot*» (*ombor*), «*waste*» (*chiqindi*).

Yer usti logistikasi bilan bog‘liq bolgan terminologik qatlam boshqa qatlamlarga qaraganda qadiymiligi va terminlarga boyligi bilan ajralib turadi. *Karvon*, *karvonsaroy*, *karvonboshi*, *sarbon*, *tovar*, *bozor*, *tanga* kabi leksemalar bilan boshlangan qatlam davr o‘tishi bilan kengayib, boyib bordi. Terminlarning faolligi ularning ma‘no strukturasi ham ta‘sir qildi. Masalan, *karvon* so‘zi laqabga (*Azim karvon*), har qanday tuzilishiga (*turnalar karvoni*, *Oq oltin karvoni*, *mashinalar karvoni*, *mevalar karvoni*) nisbatan qo‘llanila boshladi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli «**O‘zbek va ingliz tillaridagi logistik terminlarni ifodalovchi qisqartma so‘zlarning struktur va funksional xususiyatlari**» deb nomlanadi.

Termin hosil qilishning samarali usullaridan biri bu qisqartirishdir. Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar fan va texnikaning deyarli barcha sohalari qisqartmalar sonining ko‘payishini kuzatilmoqda.

Dissertatsiyaning «Logistika terminlarinig korrespondentsiyasi» deb nomlangan uchinchi bobi o‘zbek va ingliz tillaridagi logistika terminlarining o‘girilishidagi transformatsiya masalalariga bag‘ishlangan.

Ushbu bobning birinchi fasli «**O‘zbek va ingliz tillaridagi logistika terminlarining o‘girilishidagi transformatsiyalar**» deb nomlanib, unda

terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etish jarayoni tilga xos soʻz yasalishi qonuniyatlari hamda tilning leksik fondi asosida sodir boʻlishi haqida maʼlumotlar keltirilgan. Umumisteʼmolga oid leksikaning terminlashuvi tarixiy hisoblanadi. Bu hodisa til va terminologiya orasidagi ikki tomonlama munosabatning mavjudligini koʻrsatadi.

Logistik terminlarni tasniflash ularni sof logistik terminlarga va umumisteʼmol tildagi terminlarga boʻlinishiga asoslanadi. Bu tasnif ularni oʻz navbatida ikkiga boʻladi: sof logistik terminlar va ikki taraflama terminlar, yaʼni, ham logistik termin, ham umumadabiy soʻz.

A.I.Smirnitskiyning tadqiqotlaridagi nazariyaga muvofiq terminologik maydonlarga ajratish tamoyillari ishlab chiqilgan boʻlib, har bir maxsus soha oʻziga xos terminlar bilan toʻldirilgan. Rus olimi A.K.Kupsova ingliz tili logistika sohasiga oid terminlarni 10 ta terminologik guruhga boʻladi.¹⁰

1. *order management* – buyurtma tizimi boshqaruvi;
2. *transportation* – transport vositasida yuklarni tashish;
3. *warehousing and material handling* – omborda saqlash va mahsulotni qayta ishlash;
4. *inventory management* – gʻamlangan mahsulot boshqaruvi;
5. *information technologies* – axborot texnologiyalari;
6. *logistics management* – logistika tizimi boshqaruvi;
7. *supply chain management* – yetkazib berish tizimi boshqaruvi;
8. *syber logistics (on line logistics)* – onlayn logistikatizimi boshqaruvi;
9. *purchasing management* – xaridni tizimini boshqarish;
10. *logistics of production* – ishlab chiqarish logistikasi.

Biz sohaga oid terminlarning tahlili natijasida ushbu guruhni yanada kengaytirdik va quyidagi terminologik guruhlarni qoʻshdik va ularning qaysi sabablariga koʻra yuzaga kelganini izohladik.

